

O‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘nalishlari

Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti professional ta’lim fakulteti 1-bosqich magistratura bo‘limi “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” yo‘nalishi talabasi, Navoiy nomli davlat stipendiyasi sovrindori

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan teran mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga olib chiqish, nutq va nutq madaniyatini shakllantirish, o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitib, har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy-kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nuqtning asosiy vazifasi, o‘quvchilarni o‘quv-bilim faoliyatiga yaxshilab tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda bayon qila oladigan shaxsni shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: nutq, nuqt madaniyati, tilning mavjud imkoniyatlari, tasviriy matn, rivoyat matni, fikr, nutqni o‘stirish, tasviriy matn, tilni o‘rgatish, so‘z ustida ishlash, bog‘lanishli nutq.

Аннотация: На уроках родного языка в начальных классах формирование у обучающегося навыков правильного, быстрого, осознанного выразительного чтения, от обычного книгочитателя до уровня вдумчивого творческого читателя выявление, формирование речи и речевой культуры, расширение знаний об окружающем и существовании посредством чтения, обогащают свое мировоззрение, читая текст любого стиля и это понимание, приобретение навыков критически-творческого мышления. Основная функция точки на уроках начального языка – лучшая подготовка учащихся к учебной деятельности, с др. умеет вступить в диалог, выразить свое мнение в понятной для других форме состоит в формировании и совершенствовании человека, который его получает.

Ключевые слова: речь, точечная культура, существующие возможности языка, визуальный текст, повествовательный текст, мышление, развитие речи, визуальный текст, обучение языку, работа над словами, связная речь.

Abstract: In primary-grade mother tongue classes formation of correct, fast, conscious expressive reading skills in the student, them from an ordinary book reader to the level of a thoughtful creative reader bringing out, formation of speech and speech culture, expansion of knowledge about surroundings and existence through reading, enriching their worldview, reading any style of text and its understanding, acquisition of critical-creative thinking skills. The main function of the dot in primary language classes is better preparation of students for educational activities, with others able to enter into dialogue, express his opinion in an understandable way to others consists of forming and improving the person who receives it.

Key words: speech, point culture, existing possibilities of language, visual text, narrative text, thought, development of speech, visual text, language teaching, working on words, connected speech.

Nutq - kishi faoliyatining turi. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, fikrni his-hayajon bilan ifodalash hamda boshqalarga ta’sir etish uni ishlatish hisoblanadi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim ishlab chiqarishlaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish quroli sanaladi. Biz tilni jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlantirib, bo‘yitib kelgan ajdodlarning vorislaridirmiz. O‘quvchilarni tilning mavjud irnkoniyatlaridan nutq jarayonga foydalanishga maktab ona tili ta’limi oldida turgan mas’uliyatli vazifalardan sanaladi. Boshlang‘ich sinfni bosh maqsadi ham o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir, masalan: eshitganlarini gapirib berish, o‘qiganlarini gapirib berish, eshitganlarini tushunish va uni gapirib berish, o‘qiganlarini tushunish va uni so‘zlab berish, bu milliy o‘quv dasturida ham ta’kidlab aytib o‘tilgan.

Nutq o‘stirish asosiy uch yo‘nalishga aniq ajratiladi:

- 1) so‘z ustida ishlash;
- 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birga), morfologiya, sintaksis

yordamga keladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Lingvistikada uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap material uchun; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z hikoya, bog‘lanishli va insho lug‘atni bo‘yitish vositasi hisoblanadi. O‘quvchilar nutqini o‘zlashtirish oz metodik harakatiga ega, o‘zining sport turlari mavjud. Bulardan eng muhimlari bog‘lanishli nutq harakatidir. Nutq o‘stirishda ishlash to‘rt shartni, ya‘ni mashqlarning aniqliligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta‘minlanadi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darsigina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san‘at, musiqa darslari)ning, shuningdek sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir. So‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza bilish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi. Ma‘lumki, til jamiyat a‘zolari o‘rtasida aloqa - aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma ravishda berishi, o‘z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Hazrat Alisher Navoiy til kishilarning o‘zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta o‘rin egallashini, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ekanligini alohida ta‘kidlab, bunday yozgan edi:

So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdirki, berur xabar jonga jonondin
Insonni so 'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a‘zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasi - o‘quvchilarni fikrini bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma‘lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyat hisoblanadi. Odamlar orasida fikr almashish bo‘lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to‘xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo, uning o‘zini to‘la-to‘kis o‘rganib olishga



harakat qilish shart. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olishi emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani o‘quvchiga tilni o‘rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me’yorlarini ham o‘rgatadi.

Hozirgi kunda ona tili darslari maqsadini belgilar ekanmiz, darslarda asosan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini savodli qilib, chiroyli ifodalashga o‘rgatishimiz zarur. Bu boradagi usullardan biri ijodiy matn yaratishga o‘rgatish hisoblanadi. O‘z fikrini ijodiy matn tarzida ifodalash ona tili darslariga qo‘yilgan talablarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan eng samarador usul bo‘lib, unda o‘quvchining tafakkuri rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi va so‘zdan o‘rinli foydalanish jihatidan bir-biridan farq qiladi. Tasviriy matnda voqea ishtirok etadigan shaxslar bo‘lmaydi. Unda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar, voqea va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Matnning bu turida tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisa kabilarning o‘ziga xos tashqi belgilariga alohida e’tibor beriladi. Matnning bu turidan, ayniqsa, 4-5-7-sinflarda ko‘proq foydalaniladi. Chunki bu usul o‘quvchilar uchun ancha murakkablik tug‘dirmaydi va til hodisalarini o‘rganish jarayonida yil fasllari, lola sayli, maktab bog‘i, paxta dalasi, cho‘l, sahro, tog‘, daryo, shahar, qishloq va hakazolar tasvirini bemalol yarata olishadi. Tasvirlash kuzatuvchanlikka bog‘liq. Shuning uchun ona tili darslarida o‘quvchilarni kuzatuvchanlikka o‘rgatish, narsa, voqea-hodisalardagi eng muhim belgi va xususiyatlariga ko‘ra bilishga odatlantirish juda katta ahamiyatga ega. Matnning ikkinchi turi rivoyatdir. Rivoyat matni tasviriy matndan voqeaning izchillikda berilganligi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda voqea-hodisa bir mazmuniy yaxlitlikni saqlashi shart va zarur. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotlariga alohida o‘rin ajratiladi; voqealar hikoya tarzida bayon qilinadi. Rivoya matnida tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi. Ona tili darslarida bunday matnlardan juda ko‘p foydalanishga to‘g‘ri keladi. "Bizning oila", "Yoz kunlarining birida", "Mening do‘stim" kabi mavzularda yaratiladigan matnlar shular jumlasidandir. Ona tili darslarida keng qo‘llaniladigan matnning yana bir turi muhokamadir. Muhokama matnining o‘ziga xos xususiyati shundaki, so‘zlovchi bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. O‘z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish,



taqqoslash natijasiga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqida o'z hukmini chiqaradi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqoqlik, odob va odobsizlik, qadr-qimmat va qadrsizlik, sabr-toqat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Yuzga aytganning zahri yo'q", "Dili to'g'rining - yo'li to'g'ri", "Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi", "Sayoq yurgan tayoq yeydi". Tajribalardan ma'lumki, o'qituvchining nutqi o'quvchilarni o'zigaga ergashtirib, ularda ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi. Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta. Boshlang'ich sinf ona tili kitoblarida ham ko'plab ertaklar uchraydi. Unga ertaklar bolalarni obod - axloqqa o'rgatishi, ma'naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim sizga egadir. Masalan, Ur to'qmoq ertagidagi dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroq bo'lish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochko'zlik juda yomon odat, do'stga mehribon bo'lish, rostgo'ylik insonning ma'naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. Birga yaxshilikka doir so'zlar, unga esa uning aksi bo'lgan so'zlar aytilib farqi o'zaro izohlanadi. O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar mehribon, saxiy, shirinso'z, yoqimli, go'zal, chiroyli, mehnatkash, e'tiborli, kamtar, aqlli, bilag'on kabi so'zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar yomon, xunuk, qo'pol, yolg'onchi, ayyor, to'polonchi, tartibsiz, xasis, qizg'anchiq kabi so'zlarni aytadilar. Nutq inson qobiliyatiga bir turi sifatida tildan shaxsiy holda fikrni ifodalashdir.

Til, tafakkur va nutq o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, odam o'ylayotganda fikrini so'zlar, jumlar vositasida ichki nutqda ifoda etadi. Nutq fikrni bayon etish vosita bo'libgina qolmay, uni quroli hamdir. Fikr nutqning asosiy usulidir. Aqliy faoliyatni egallash asoslangandagina nutqni o'zlashtirish mumkin. Shuning uchun nutqni o'quvchilar o'stirishda so'z boyligini takomillashtirish, mavzuga tegishlilikini tanlash, yetkazib berish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turiga katta ahamiyat beriladi, ona tili darsliklari o'quvchilarning aqliy. qarash, mantiqiy tafakkurining rivojlanishida boy materialga ega va tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz inson fikrlamaydi. Tafakkursiz o'quvchining nutqiy mavzusini o'stirishdan oldin uning fikrlash miqdorini o'stirishga talab qoyish lozim. Negaki nutqni tafakkurdan ajratib hayotdagi narsa-predmetlarning nomi va



ular haqida fikr bildirish uchun osha narsa-predmet anglanadi va unga munosabat bildiriladi. O'quvchi nutq ustida ishlash o'qituvchilar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Ona tili darslarida grammatik va orfografik tasvirlarni egallash jarayonida muayyan fikrlash faoliyatining yuz berishi bevosita mantiqiy tafakkur tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli amalga oshadi. Fikrni nutqiy undan aniq, tushunarli, sof, mantiqiy bo'lishini ta'minlash bilan birga, tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar haqida har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalanadi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy faoliyati haqida fikr yuritilganda, u bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni o'sishiga yordam beradi, takomillashtiradi.

Bog'lanishli nutq ko'rinishini egallashga masala yechish bilan bogliq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish qobiliyati samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan o'qib eshitilgandan so'ng, o'quvchilarning foydali mazmunini eshitib idrok ustiga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib yuborish o'rgatiladi. Masalaga o'rgatish esa mantiqiy, muhokama bilan kichik hikoyani beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab qiladi. Masalaning hikoyadan farqi, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab qilinadi. O'quvchi rasm asosida «Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?» masalasini tuzadi. Bu masalani yechishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchillikda muhokama qilish va yordam bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishni o'rganadilar. O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta o'ringa ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, har doim o'quvchi

daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo tartibga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli nutq so‘zlashga va yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta‘lim Standarti. Boshlang‘ich ta‘lim jurnali. 2006. 5-son.
2. Boshlang‘ich ta‘lim takomillashtirilgan O‘quv dasturi. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali. 2006. 5-son
3. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. “Moliya”, 2003 172 b.
4. R.Jo‘rayev, A.Zunnunov. Ta‘lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash. T.“Sharq”. 2005. 80 b.
5. T.G‘afforova “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarlar”. T.. “Tafakkur” 2011-yil
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, IV-jildlar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2005 2010-yillar.
7. Qosimova K, Matchonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent, ”Noshir” nashriyoti,2009, 231b.
8. Roziqov O.,Mahmudov M. va b. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: „Yangi asr avlodi“, 2005
9. K.Qosimova,S. Matjonov , X. G‘ulomova , Sh.Yo‘ldosheva ,Sh. Sariyev . “Ona tili o‘qitish metodikasi”-Toshkent, “Nosir” nashriyoti, 2009
10. Q.Husanboyeva,M.Hazratqulov,Sh.Jamoldinova. “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” Toshkent.”Innovatsiya-Ziyo”- 2020
11. O.Roziqov,M.Mahmudov va boshqalar. “Ona tili didaktikasi”-Toshkent; “Yangi asr avlodi”,2005
12. N.Karimova. “Boshlang‘ish sinflarda insho yozishga o‘rgatish usullari”-maqola.
13. Jumaniyozov. R. Nutqiy mahorat. Toshkent 2005. – 15-16 b.
14. Jo‘rayev.T., Halimov.S. Nutq madaniyati. Samarqand.,2021.-107 b.
15. Boshlang‘ich sinflar uchun metodik qo‘llanmalar.
16. www.uz.m.wikipedia.org
17. www.cyberleninka.ru
18. www.fayllar.org
19. www.hozir.org
20. www.arxiv.uz
21. www.baxtiyor.uz
22. www.fayllar.org